



UO‘K:

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.16970041>

## SHAXSDA IJTIMOIY MAS’ULIYAT VA DAXLDORLIKNI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK YONDASHUVLARI

### PEDAGOGICAL APPROACHES TO DEVELOPING SOCIAL RESPONSIBILITY AND INVOLVEMENT IN INDIVIDUALITY

### ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ И ВОВЛЕЧЕННОСТИ В ЛИЧНОСТЬ

Egamberdiyeva (Muhammadjonova) O‘g‘iloy Bahodirjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti

#### Annotatsiya.

*Mazkur maqolada jamiyat va uning rivoji hamda jamiyatga daxldorlik tuyg‘ilarini shakllantirish kerak ekanligi hamda daxldorlik tuyg‘ularini texnologiyalari bo‘yicha olib borilayotgan ishlar va ma’lumotlar haqida hamda talabalarning shu asnoda tarbiyalashga qaratilgan fiklar haqida muhum ma’lumotlar keltirilib o’tilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *global, jamiyat, fuqarolik, rivojlanish, taraqqiyot, yondashuv, test, metod, yangilik.*

#### Abstract.

*This article presents important information about the need to form a sense of belonging to society and its development, as well as the work and information on technologies for the formation of a sense of belonging, as well as ideas aimed at educating students in this regard.*

**Keywords:** *global, society, citizenship, development, progress, approach, test, method, innovation.*

#### Аннотация.

*В данной статье представлена важная информация о необходимости формирования чувства принадлежности к обществу и его развитии, а также работа и информация о технологиях формирования чувства принадлежности, а также идеи, направленные на просвещение учащихся в этом отношении.*

**Ключевые слова:** *глобальный, общество, гражданство, развитие, прогресс, подход, тест, метод, инновация.*

Jahonda global raqobat muhitida yoshlarning huquqiy bilimini va siyosiy dunyoqarashini rivojlantirish orqali ularda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Bu borada O’zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ham salmoqli o’zgarishlar va islohotlar olib borilmoqda hamda jamiyatning asosiy qismini tashkil etuvchi yoshlar faolligini oshirishning ijtimoiy-huquqiy, ilmiy-pedagogik asoslarini va rivojlantirishmexanizmlarini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda. «Bugungi kunda mamlakatimizda yangi O’zbekistonni barpo etishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda azmu shijoatli yoshlarimizning o’rni va ta’siri tobora ortib borayotgani hammamizni quvontiradi». Biroq jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faoliyatida yoshlarni shunchaki ishtirokchi sifatida emas, islohotlarni, keng ko‘lamli o’zgarishlarni amalga oshiruvchi, ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida harakatlanuvchi qatlamga aylantirish bugunning talabidir. Bu borada davlatimiz rahbari quyidagi fikrlarni alohida ta’kidlagan edilar: «hayotimizning barcha soha va tarmoqlarida, Vatan himoyasidek sharaflı vazifani ado etishda milionlab yoshlarimiz sadoqat va fidoyilik bilan xizmat qilmoqda.

Siyosiy saviyasi yetuk, mustahkam fuqarolik pozitsiyasiga ega yuzlab yigit-qizlar parlamentimiz va xalq deputatlari mahalliy kengashlarining a’zosi sifatida davlat va xo’jalik boshqaruvi organlari hamda mahalliy hokimiyat idoralarida rahbarlik lovozimlarida faoliyat ko‘rsatmoqda». Shunday ekan, global o’zgarishlar muhitida, globallashuv va integratsiyalashuv sharoitida hamda davlatlararo xalqaro munosabatlarning noziklashib borishi vaziyatida har bir mamlakat, xususan, O’zbekiston yoshlarining huquqiy bilimi, siyosiy dunyoqarashi, mustahkam fuqarolik pozitsiyasi ijtimoiy barqarorlikni, millatlar va davlatlararo totuvlikni ta’minlovchi muhim omil bo‘lishi jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning yangicha yo’llari va mexanizmlarini yaratish zaruratini ortirmoqda. O’zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, jamiyatni modernizatsiyalash va fuqarolik jamiyatini shakllantirish vazifalarini amalga oshirishda fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy faolligini oshirish, fuqarolik pozitsiyasiini qaror toptirish muhim vazifalardan biri sanaladi. Fuqarolik pozitsiyasiyu yuksak intellektual kompetensiyasi, keng dunyoqarash va teran tafakkur, huquqiy va siyosiy saviya va bilim, kompetensiyasi asosida shaklananadi. Shuningdek, fuqarolik pozitsiyasiini rivojlantirishdagi muhim omil so‘z erkinligi qadrldanadigan, qonun usuvor bo‘lgan va fikrlar-xilma xilligi hurmat qilinadigan ijtimoiy muhit ham zarur. Mazkur vazifalar asosida so‘ngi yillarda mamlakatimizda yangi tizimi yaratildi va yangicha Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tadqiqot oldiga qo‘yilgan vazifalarning yechimini topish uchun quyidagi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi: falsafiy, ijtimoiy, tarixiy, pedagogik, psixologik adabiyotlar qiyosiy-tanqidiy o’rganildi, tahlil qilindi, pedagogik kuzatish, sotsiometrik, tajriba-sinov (suhbat, anketa, test, intervju), matematik-statistik tahlil natijalarini umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Talabalarda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, ta’lim texnologiyalaridan foydalanish yo‘llarini ishlab chiqishda Mustaqil davlatlar hamdo‘sligi va respublika olimlaridan V.Bespalko, M.Klarin, V.Slastyonin, G.Selevko, B.Lixachyov, B.Farberman, N.Sayidaxmedov, M.Ochilov, K.Zaripov, B.Xodjaev, Sh.Olimov, O‘.Tolibov, M.Usmonboeva, D. Ro‘zieva, R.Ishmuxamedov, A.Golich, N.Avliyoqulov, A.Shomuxamedov, Z.Ismoilovalarning tadqiqotlaridan foydalanildi. Xorijiy davlatlar olimlaridan Ch.Lokxart, N.Ekstayna, G.Almond, S.Verb, S.Heller, E.Shilz, M.Xokeymerlar tadqiqot muammosi doirasida olib borgan izlanishlarda o‘quvchilarda fuqarolik pozitsiyasiini shakllantirish va rivojlantirish masalalari tahlil etilgan. Bo‘lajak o‘qituvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish –har bir talabada o‘z xalqining tarixi, ma’naviy qadriyatlari, vatanning imkoniyatlari va istiqbolini bilish va qadrlash, undan faxrlanish, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligi uchun daxldorlikni his qilish, o‘z huquqi bilan birgalikda burch va majburiyatlarini yaxshi bilish hamda ularni to‘laqonli amalga oshirish, har qanday holatda ham milliy manfaatlarni himoya qila olish fazilatlarini tarbiyalash demakdir. Tadqiqotchi A.Akramova fikricha, fuqarolik tushunchasi keng mazmun-mohiyatga ega bo‘lib, jamiyat a’zolarining siyosiy, ijtimoiy huquqlarini anglatadi. Fuqarolik tarbiyasi har tomonlama fidoyi, jamiyatga foyda keltiradigan, ijtimoiy-siyosiy vazifalarni bajarishga layoqatli shaxsn shakllantirishni nazarda tutadi. Davlat siyosatining asosini fuqaro hamda davlatning o‘zaro munosabatlari tashkil etadi. Uning mohiyati o‘zaro aloqador bo‘lgan burch va mas’uliyatlarni anglashdadir. Shuning uchun ham fuqarolik shaxsning ijtimoiyaxloqiy kompetensiyasi ko‘rsatkichi sifatida tarkib topadi». Bu esa, «fuqarolik dunyoqarashining asosini bo‘lajak mutaxassisning o‘z haq-huquqlari va erkinligini anglashi hamda uni himoya qilishga tayyorligi tashkil etadi. Tadqiqotchi A.Akramova fikricha, oliy ta’lim muassasalarining talabalari fuqarolik dunyoqarashiga ega bo‘lishlari uchun o‘zlarida muayyan sifatlarning tarbiyalanishiga erishishlari talab etiladi. Oliy ta’limda talabalarning faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda huquqiy kompetensiyasi bilan birga g‘oyaviy tarbiya ham muhim ahamityaga ega hisoblanadi.

Bo‘lajak kadrlarda ijtimoiy faollikni oshirish, ularda ijtimoiy mas’uliyatni, jamiyatga dahldorlik tuyg‘usini shakllantirishda ijtimoiy ong shakllari bo‘lgan fan, din, falsafa, san’at, badiiy adabiyot, axloq va huquq g‘oyaviy tarbiyaning manbalari va asosi hisoblanadi. Shu bois talabalarni kuchli mutaxassis, raqobatbardosh kadr bo‘lish bilan birga faol fuqaro, erkin, ozod va keng fikrli inson qilib tarbiyalash, dunyoqarashi va tafakkuri teran kadr sifatida yetishtirish davr talabidir va bugungi islohotlarning bosh maqsadidir. Shuningdek, olib borilayotgan ta’lim va tarbiya jarayonlari talabalarning dunyoqarashini kengaytirish, ularning ongini dunyoviy, ilmiy bilimlar bilan boyitishga yo‘naltirilgach, bu ularning faol hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lishlariga ko‘maklashadi. Fuqarolik tarbiyasi, fuqarolik dunyoqarashini shakllantirish barkamol avlodni

tarbiyalashning markaziy masalasi hisoblanadi. Fuqarolik fidoyilik bilan chambarchas bog’liq bo‘lib, uning eng yuqori nuqtasi sifatda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham fidoyi yoshlarni tarbiyalash uchun dastlab ularda fuqarolik tuyg‘usini qaror toptirish lozim. Fuqarolik pozitsiyasiyuksak intellektual kompetensiyasi, keng dunyoqarash va teran tafakkur, huquqiy va siyosiy saviya va bilim, kompetensiyasi asosida shaklananadi. Shuningdek, fuqarolik pozitsiyasiini rivojlantirishdagi muhim omil so‘z erkinligi qadrldanadigan, qonun usuvor bo‘lgan va fikrlar xilma- xilligi hurmat qilinadigan ijtimoiy muhit ham zarur.

Qadriyatli yondashuv asosida talabalarda tolerantlik tafakkuri va fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirish – har bir talabada o‘z xalqining tarixi, ma’naviy qadriyatları, vatanning imkoniyatlari va istiqbolini bilish va qadrlash, undan faxrlanish, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligi uchun daxldorlikni his qilish, o‘z huquqi bilan birgalikda burch va majburiyatlarini yaxshi bilish hamda ularni to‘laqonli amalga oshirish, har qanday holatda ham milliy manfaatlarni himoya qila olish fazilatlarini tarbiyalash demakdir.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Sh.M.Mirziyoyev Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. - Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B.496.,489.
2. Sh.M.Mirziyoyev Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. -B. 386.
3. Sh.M.Mirziyoyev Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – B.440.
4. A.A.Akramova Bo‘lajak o‘qituvchilar fuqarolik pozisiyasini shakllantirishda shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarni o‘rni. // Zamonaviy ta’lim. 2017. № 4. –B. 56.
5. M. Abdullaeva, M. Ijtimoiy ong va fuqarolik tarbiyasi asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, –2020.
6. N.Jo‘raqulov, Pedagogik texnologiyalar: Nazariya va amaliyat. Toshkent: O‘zbekiston pedagogika nashriyoti, –2019.
7. A.Axmedov, Shaxsni ijtimoiylashtirishda ta’lim va tarbiyaning o‘rni. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim vazirligi. –2018.
8. D.Abdullayeva, Fuqarolik tarbiyasida innovatsion yondashuvlar. Toshkent: Ilm ziyo, –2021.